



100151, Toshkent sh, Zakovat ko'chasi, 2

2 Zakovat str., Tashkent 100151

**BUYRUQ № 75-11**

« 22 » 07 2025.

**“O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 08 iyuldagi “Sog‘liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 203-son hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2025 yil 22 iyuldagi 46-sonli buyrug‘larini ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida.”**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 08 iyuldagi “Sog‘liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 203-son hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2025 yil 22 iyuldagi 46-sonli buyrug‘larini ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**B U Y u R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 08 iyuldagi “Sog‘liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 203-son hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2025 yil 22 iyuldagi 46-son buyrug‘lari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (keyingi o‘rinlarda - Markaz) Korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassisi (F.P. Tursunov)ga:

- Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;  
- Markaz faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2- ilovaga muvofiq;

- Markazda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

- Markazning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

- Markaz xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha nizom 5-ilovaga muvofiq;

- Markazda kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;



- Markazga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

- Markazda Korrupsiyaga qarshi tartib-tamoyillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

- Markazda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha reja 9-ilovaga muvofiq;

- Markazning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

- Markazda davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofiq;

- Markaz xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

- Markazda Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

- Markazda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3. Mazkur buyruqning 2-bandida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar mazmuni bilan tegishliligi bo'yicha Markazning barcha rahbar va mas'ul xodimlari kesimida **2025 yil 15 avgust kuniga** qadar imzo evaziga tanishtirilishi ta'minlansin.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (E.Danaev)ga ma'lumot taqdim etilsin;

4. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (F.Tursunov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (G.Xasanova) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirib, Markazning tizim tashkilotlariga o'z vaqtida yetkazilishi ta'minlasin;

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022-yil I-martdagi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda oldini olish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 71 -son hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2022 yil 12-apreldagi 29-sonli buyrug'lari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

6. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Acoc: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 08 iyuldagi "Sog'liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 203-son hamda Sog'likni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025 yil 22 iyuldagi 46-sonli buyrug'lari.

Direktor vazifasini bajaruvchi

B.M.Tadjiev